

MA'NAVIY YUKSALISH – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING STRATEGIK OMILI SIFATIDA

Alimuxammadova Gulsevar Xaydar qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviy yuksalishning Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi strategik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, jamiyatning ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashning davlat va jamiyat rivojidagi o'рни yoritilgan. Ma'naviy taraqqiyotning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy islohotlar samaradorligini ta'minlashdagi roli hamda inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy yuksalish, Yangi O'zbekiston, taraqqiyot, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, inson kapitali, fuqarolik jamiyati, vatanparvarlik, strategik rivojlanish..

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения рассматривается значение духовного развития как стратегического фактора прогресса Нового Узбекистана. Особое внимание уделено вопросам укрепления духовного потенциала общества, сохранения национальных ценностей, воспитания молодежи в духе патриотизма, гражданской ответственности и высоких нравственных качеств. Также обоснована роль духовного развития в повышении эффективности социально-экономических и политических реформ, а также в развитии человеческого капитала.

Ключевые слова: духовное развитие, Новый Узбекистан, прогресс, национальные ценности, духовность, человеческий капитал, гражданское общество, патриотизм, стратегическое развитие.

Abstract: This article scientifically examines spiritual development as a strategic factor in the progress of New Uzbekistan. It analyzes the role of enhancing the spiritual potential of society, preserving national values, and educating young people in the spirit of patriotism, civic responsibility, and high moral standards. The study also highlights the importance of spiritual development in increasing the effectiveness of socio-economic and political reforms and in strengthening human capital as a key driver of sustainable national development.

Keywords: spiritual development, New Uzbekistan, national development, national values, spirituality, human capital, civil society, patriotism, strategic development.

Bugungi kunda O'zbekiston hayotida katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Iqtisodiyot, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy sohalarida yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Bunday jarayonlarda mamlakatning rivojlanishini faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan baholab bo'lmaydi. Chunki taraqqiyotning asosiy kuchi insondir. Insonning bilimi, dunyoqarashi, tarbiyasi va ma'naviyati qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyat ham shunchalik rivojlanadi.

Ma'naviyat insonning ichki dunyosini, uning hayotga va atrofida odamlarga munosabatini belgilaydi ya'ni Halollik, vatanparvarlik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar ma'naviy yetuklikning muhim belgilaridir. Bunday fazilatlar insonni nafaqat yaxshi shaxs, balki jamiyatga foydali fuqaro bo'lishga ham undaydi. Yangi O'zbekiston g'oyasining markazida inson qadri bejizga yuksak hisoblanmaydi, inson manfaatlarini ta'minlash, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish, munosib sharoit yaratish mamlakat taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Lekin inson qadri faqat moddiy sharoit bilan belgilanmaydi aksincha, insonning ma'naviy ehtiyojlari, bilim olishi, o'z qobiliyatini namoyon qilishi va jamiyatda munosib o'rin topishi ham katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan qaraganda, ma'naviy yuksalish mamlakat taraqqiyotining ichki tayanchi hisoblanadi va jamiyatda halollik va mas'uliyat kuchaysa, odamlarning bir-biriga bo'lgan ishonchi ham ortadi.

O'z ishiga vijdonan yondashadigan insonlar ko'paygani sari davlat va jamiyat oldidagi vazifalarni bajarish ham osonlashadi, demak ma'naviyat taraqqiyotdan alohida emas, balki uning tarkibiy qismidir.

Ma'naviy yuksalish haqida alohida to'xtalsal albatta yoshlar masalasiga ko'proq e'tibor berish kerak, negaki bugungi yoshlar ertangi kunning bunyodkorlaridir, ularning qanday bilim olishi, qanday muhitda tarbiyalanishi va hayotga qanday qarashi mamlakat kelajagiga bevosita ta'sir qiladi, shu sababli ham yoshlarni faqat kasbga tayyorlash emas, balki ularda mustaqil fikrlash, vatanparvarlik va mas'uliyat hissini ham shakllantirish zarur deb hisoblayman.

Ta'lim esa bu jarayonda eng muhim vositalardan biridir, bilimli inson turli muammolarga to'g'ri yechim topa oladi, yangilikni qabul qiladi va o'z ustida tinimsiz ishlay oladi, shu bilan birga, bilim ma'naviyat bilan uyg'unlashgandagina yaxshi natija beradi, bilimli ammo mas'uliyatsiz yoki halollikni qadrlamaydigan insonning imkoniyati jamiyat uchun har doim ham foydali bo'lavermaydi. Milliy qadriyatlar ham yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutib o'z tarixini, tilini, madaniyatini va ajdodlari merosini bilgan yosh o'zligini yaxshiroq anglaydi. Biroq milliy qadriyatlarni asrash zamonaviy rivojlanishdan chetda qolish degani emas.

Aksincha, o'zligini saqlagan holda ilm-fan, texnologiya va zamonaviy fikrlashga intilish eng to'g'ri yo'ldir. Hozirgi davrda internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning hayotining bir qismiga aylangan bo'lib internet orqali bilim olish, yangiliklardan xabardor bo'lish va dunyo bilan muloqot qilish mumkin va shu bilan birga, turli noto'g'ri ma'lumotlar va zararli g'oyalar ham tarqalmoqda va bunday sharoitda insonning mustaqil fikrlashi va ma'lumotni tahlil qila olishi juda muhim.

Ma'naviy immunitet aynan shunday vaziyatlarda insonni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilib, o'z fikriga ega, bilimli va ma'naviy jihatdan yetuk yosh har qanday axborotni darhol qabul qilmaydi, avval uning mazmunini o'ylab ko'radi va shu sababli ham bugungi tarbiya jarayonida tanqidiy fikrlash va axborotdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalariga ham e'tibor berish kerak.

Ma'naviy yuksalish faqat alohida insonning emas, butun jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi, u oiladagi tarbiya, ta'limdagi muhit, mahalladagi munosabat va jamiyatdagi umumiy qadriyatlar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, farzand oilada halollikni ko'rsa, maktabda bilimga qiziqsa, jamiyatda mehnat va adolat qadrlanishini his qilsa, unda ijobiy fazilatlar yanada mustahkamlanadi va yana bir inson yetuk shaxs tarbiylanadi.

Xulosa qilsak, ma'naviy yuksalish eng avvalo insonning o'zidan boshlanadi. Har bir kishi o'z ishini halol bajarishga, vaqtini qadrlashga, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga va Vatan ravnaqiga oz bo'lsa ham hissa qo'shishga intilsa, jamiyatda katta o'zgarishlar yuz beradi, ma'naviyatni faqat gap bilan emas, kundalik hayotdagi amallar bilan ko'rsatish kerak. Yangi O'zbekistonning kelajagi bilimli, faol va ma'naviy yetuk avlod qo'lida. Iqtisodiy taraqqiyot, zamonaviy texnologiyalar va yangi imkoniyatlar qanchalik muhim bo'lmasin, ularni to'g'ri yo'naltiradigan inson omili doimo birinchi o'rinda turadi.

Shu sababli yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ta'lim sifatini oshirish va milliy qadriyatlarni asrashga e'tibor berish kelajak uchun eng yaxshi sarmoyalardan biridir, ma'naviy yuksalish Yangi O'zbekistonning bugungi va kelajakdagi taraqqiyoti uchun mustahkam asos bo'la oladi. Inson qadri, sifatli ta'lim, milliy o'zlik, zamonaviy bilim va yuksak axloq birlashgandagina haqiqiy taraqqiyot yuzaga keladi va har bir inson o'zidan boshlagan ijobiy o'zgarish orqali jamiyat rivojiga hissa qo'sha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent: O'zbekiston.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.
4. Mahmudov, T., va Nurmuhamedova, D. (2023). Ma'naviyat asoslari. Toshkent: Tafakkur.
5. Otamurodov, S. (2024). Milliy g'oya va ma'naviy taraqqiyot. Toshkent: Akademnashr.